

Airbus A321neo NX haqida 5 ta qiziq fakt

2022 17 Mart

2022-yilning 14-fevralida Uzbekistan Airways Airbus A321neo NX rusumidagi birinchi havo kemasini qabul qilib oldi, 7-mart kuni esa xuddi shu modeldagi ikkinchi avialayner Gamburgdan Toshkentga uchib keldi.

A321neo NX – Airbus havo kemalari ishlab chiqaruvchisining torfyuzelyajli yo‘lovchi havo kemalarining yangilangan versiyasi hisoblanadi. Bugun Uzbekistan Airways jamoasi yangi A321 haqida 5 ta qiziq fakt tayyorladi.

1. Iqtisodiy.

A320 bilan solishtirganda, A321 16% kamroq yoqilg‘i sarflaydi.

2. O‘rta masofali parvozlarga mo‘ljallangan.

Samolyotning maksimal parvoz masofasi 7400 km ga yetadi.

3. Katta o‘lchamli.

Havo kemasining uzunligi 44,5 metrni tashkil qiladi.

4. Sig‘imli.

A321neo NX komponovkasi 188 yo‘lovchiga mo‘ljallangan: biznes-klassda 16 ta va ekonomda – 172 kishi.

5. Shinam.

Havo kemasi saloni oldingi modellarga qaraganda kengroq bo‘lib, bu esa o‘rindiqlar hajmini oshirish imkonini berdi.